

HALLOWEN BAYRAMINING KELIB CHIQISHI VA UNING TASNIFI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi.

Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: aliyevas.907@gmail.com

Mamatyoqubova Odinaxon Abdumutalib qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

21.88-gurux talabasi

Annotatsiya: Halloween g'arb mamlakatlarining mashhur va ommaviy bayramlaridan biri hisoblanadi. Va har yili katta shou festival tariqasida nishonlanib kelinadi. Bu bayramning ham o'ziga xos kelib chiqish tarixi va undagi leksema va iboralar tasnifiga ega. Ushbu maqola yordamida bu ma'lumotlar kengroq yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: Halloween, festival tadbirlari, "trick-or treat", an'anaviy liboslar, bayram taomlari, festival ramzi.

Halloween bayrami bizga notanish bo'lsada, g'arb mamlakatlarining sevimli va mashhur bayrami hisoblanadi. Halloween festivali Keltlardan kelib chiqqan va 2000 yildan ortiqroq vaqtga ega. Qadimgi Keltlar 31- oktyabrni yil yarmining eng yorqin kuni va qishning boshlanishi deb hisoblashgan. Shuning uchun Halloween har yili oktyabrning so'nggi 31- sanasida ommaviy tarzda Amerika, Kanada, buyuk Britaniya kabi yevropa davlatlarida keng nishonlanadi. Ular bu davrni o'lim bilan bog'lashadi va o'liklar tiriklar dunyosini kezib yuradigan kechasi ekanligiga ishonishadi. Halloween dastlab "All- hallow-even" ya'ni "Muborak kecha" sifatida tanilgan va keyinchalik "Halloween" tarzida aytila boshlagan. Bu bayramni nishonlash uchun odamlar jodugar, arvoq yoki o'rgimchak odam singari mashhur odamlar kiyimlarini kiyishadi.

Festivalning keng tarqalgan liboslari.

Avvaliga oddiy niqob kiyilgan bo'lsada, keyingi yuz yil ichida rivojlangan festival kostyumlari haqiqiy shou bo'lishiga sabab bo'ldi. Vampire Halloween – bu Halloweenning an'anaviy libosi. U kostyum- shim, oq ko'ylak va qizil astarli uzun qora yopinchiqni o'z ichiga oladi. Vampire Halloween maxsus libosdan tashqari o'ziga xos pardozdan ham iborat. Bunda bolalar soxta tish qo'yishadi, yuzlarini oqartirib pardoz qilishadi va sochlarini ham zamonaviy turmaklashadi.

Jodugar – bu libos asosan qizlarga xosdir. Ular keng yubka uzun yungli paypoq va uchli shlyapa kiyishadi. Jodugarga mos bo'lgan aksesuarlar taqishib, yorqin pardoz qilishadi. Supurgilarini ham unutishmaydi, albatta.

Halloweenning mashhur ramzi. “Jack O’lantern” bu festivalning eng mashhur ramzi. Bu yuz shakli tushirilgan qovoq bo’lib, uning ichiga chiroq joylashtirishadi. Keyin esa odamlar uni ko’rishi uchun tashqariga yoki oynalar oldiga joylashtirishadi.

Halloween festivali tadbirlari.

“Trick or treating” – “hiyla yoki davolash” – Halloween festivalining eng mashhur tadbirlaridir biridir. Bunda bolalar kostyumlarni kiyishib, odamlarning uylariga borishadi. Eshiklarini taqillatib, bizga biroz shirinlik bering yoki biz sizga hiyla qilamiz degan ma’noda “trick-or treating” deb aytishadi. Va ko’plab odamlar ularga shirinlik berishadi.

Keyingi Halloween festivalining yana bir mashhur o’yini bu –“Scavenger hunt” – “Axlatchi ovi” o’yinidir. Bu jamoa o’yini hisoblanib tashqarida o’ynaladi. Bu o’yin qoidasiga ko’ra har bir jamoaga to’planadigan narsalar ro’yhati beriladi. Barcha narsalarni birinchi to’plagan jamoa g’olib hisoblanadi. Bu o’yin odatda tunda masha’lalar bilan o’ynalaniladi.

“Apple bobbing”- o’zbek tilida “Olma chayqalishi” degan ma’noni beruvchi bu o’yin ham festivalning mashhur o’yinlaridan biri deya olamiz. Bunda katta va chuqur suv to’ldirilgan idishga olmalar solinadi. Siz u olmalarni qo’lingizni ishlatmasdan tishlaringiz yordamida olishingiz kerak bo’ladi.

Bundan tashqari bu festivalda yoshlar kostyum party o’tkizishadi. Bunda ular qo’rqinchili filmlar ko’rib, bir-birlariga qo’rqinchili hikoyalar aytib berishadi.

Keng tarqalgan Halloween taomlari.

Konfetli olma- Halloweenning mashhur va odatiy ovqatlaridan biri hisoblanadi. U “Toffee apple” nomi bilan mashhur. Bu, asosan, yopishqoq shakar siropi bilan qoplangan olmadir.

Qovoq gumusi -u qovurilgan oshqovoq bilan tayyorlanadi va Halloween oshqovog’ining yoki boshqa har xil navlarning xamiridan foydalanish uchun yaxshi retsept hisoblanadi.

Olmali non- olma mavsumining qizg’in paytida olmal non Halloweenning keng tarqalgan va an’anaviy taomi hisoblanadi. Bu non shakar, doljin va shirin olma bo’laklari bilan yumshoq va mazali bo’ladi. Uni tayyorlash esa juda oson. Hamma mahsulotlarni aralashtirib, olma va shakarli aralashma bilan qoplaymiz.

Adabiyotlar:

1. Toirova N. et al. LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE //FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 75-84.

2. Sarvinoz A., Maftuna A. LINGUOCULTURAL PECULARITIES OF THE UZBEK GEORTONYM NAVRUZ //IJODKOR O’QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 180-186.

3. Alieva, S., & Rozikova, G. (2023). LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 227–232. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2809>

4. Aliyeva S. A. Q. LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 135-140.

5. Zaylobidinovna R. G. et al. “AYOL” KONSEPTI BILAN BOG ‘LIQ INGLIZ XALQI GEORTONIMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 518-523.

6. bobsredmill.com

7. <https://www.forumdaily.com/uz/chto-takoe-xellouin-istoriya-i-tradicii-prazdnika/>